

“MUZEYLAR – TARIX TILSIMOTI, QADRIYAT BESHIGI”

Nizomova Mohina Sherzod qizi

*Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat
muzeyi, Ilmiy xodimi +998999691720*

Muzeylar ajdodlardan meros bo'lgan boylikni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina. Yillar davomida boyib, to'lib boraveradigan bu xazina faqatgina madaniy qadriyatlar namoyishigina bo'lib qolmay, uzoq tarix sahifalaridan so'zlovchi bebaho kitob hamdir. Istiqlool yillarining dastlabki kunlaridanoq, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berib, xalqimiz ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish millatimiz tarixiy-ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrdagi 2017-2022 yil davlat muzey faoliyatini takomillashtirish va noodatiy texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risidagi qarorlariga asosan, viloyat tarixiy o'lkashunoslik muzeyi 2018-yil 1-yanvardan boshlab Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyiga aylantirildi. Bugungi kunda viloyatda 1ta tarixiy va madaniy davlat muzeyi va uning tumanlaridagi 4ta filialida 27609 ta eksponat saqlanib kelinmoqda.



Muzeylar o'zbek tarixchiligini moddiy hamda madaniy merosini o'rganadigan, qolaversa, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va marosimlarimizni o'zida aks ettirgan madaniy muassasadir. Bugungi kunda Navoiy viloyati muzeyida hamda uning filiallarida 27 mingdan ortiq noyob eksponatlar saqlanmoqda. Har bir eksponat o'zini tarixi, davriyligi, kelib chiqishi hamda qaysi maqsadlar uchun ishlatilganligi bugungi kunda keladigan sayyohlar uchun judayam muhim sanaladi.

Biz bugungi kunda Navoiy viloyat muzeyi noyob ashyolarni o'rganish borasida ish olib boryapmiz. Bunda Samarqand Arxeologiya Instituti, Buxoro muzey qo'riqxonasi hamda Navoiy Davlat Universiteti olimlari bilan birgalikda bevosita o'zimizning turmush tarzimizni aks ettiradigan etnografiya, xalq amaliy san'ati, tarix hamda arxeologiya bo'limlarimizda saqlanadigan eksponatlar bo'yicha ilmiy izohlar yozish bo'yicha ish olib boryapmiz.

Shuni aytish joizki, joriy yilning 19–30-may kunlari Samarqand Arxeologiya institutida konservatsiya bo'yicha maxsus o'quv-trening mashg'ulotlari o'tkazildi. Ushbu mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining Koreya Meros xizmati tarkibidagi Koreya Meros agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Rasmiy rivojlanishga ko'mak" (ODA) loyihasi doirasida tashkil etilgan. Ushbu o'quv-trening mashg'ulotida Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimlari M.Nizomova hamda D.Dodoyeva ishtirok etishdi. Ishtirokchilar dastur doirasida arxeologik yodgorliklarni ilmiy asosda tiklash, konservatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha ham nazariy, ham amaliy bilimlarga ega bo'lishdi.



Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyida ekskursiya zallarida ajdodlarimizning hayot kechmishlarini o'zida saqlab kelayotgan etnik jihatdan o'z xususiyatiga ega liboslar, kiyim-boshlar, xalq hunarmandchiligi namunalari, qadimiy qo'lyozmalar, qog'oz va tanga pullari, tarixiy va arxeologik buyum o'z aksini topgan. Muzeyning arxeologiya bo'limida arxeologik topilmalar, Zarafshon vohasidan topilgan qazilma boyliklar, mis va sopol buyumlari, miloddan avvalgi 6-4 ming yillikka xos tarixiy qoyatosh suratlari, Uchquduq tumanidan 130km g'arbda joylashgan Mingbuloq botig'idagi Jaraquduq darasidagi tosho'rmon qoldiqlari hamda Karmana tomonidan topilgan 2300 yillik noyob xum saqlanmoqda. Madaniy

merosimiz ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti jarayonida mukammallashib, bugungi shaklni kasb etgani e'zozlidir. Zero, merosimiz shu bilan qiymatga egaki, unda ajdodlarimizning ko'p asrlik mehnatlari, orzu-umidlari hamda an'analari mujassamdir.

Ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy va ma'rifiy merosini muqaddas qadriyatlarimizni tiklash va hayotga qaytarish bilan birga hayotimizni zamonning eng ilg'or yutuq va mezonlari bilan boyitish, komil inson, barkamol avlodni voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya ishini mutlaqo yangi negizda tashkil etish faoliyatimizning ma'no-mazmunini belgilab kelmoqda.